



MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOT DAVRIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

Ashurov N.R.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti prof. v/b., p. f. n.

Tayanch soʻzlar: amaliyot dasturi, dars samaradorligi, metodik koʻrsatma, oʻquv kompleks, pedagogik oʻyinli mashgʻulotlar, shakl, usullarini, dars samaradorligi.

Ключевые слова: программа практики, эффективность урока, методические указания, учебный комплекс, педагогические игры, формы, методы, эффективность урока.

Key words: internship program, lesson effectiveness, methodological guidance, educational complex, pedagogical playful activities, form, methods, lesson effectiveness.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qaroriga asosan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy taʼlim muassasalari tahsil olayotgan pedagogika taʼlim yoʻnalishi 2-4-bosqich talabalarini uchun 3-8-semestrlarda haftalik oʻquv mashgʻulotlari “4+2” tartibida, jumladan, darslarning 4 kuni oliy taʼlim muassasasida, 2 kuni umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida amaliyot oʻtash tartibi joriy etilgan.

Tahsil oluvchi talabalarining amaliyot davri “4+2” shaklda (4 kun nazariy taʼlim, 2 kun umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida amaliyot) 15 haftadan (semestrda haftaning ikki kunida kunlik 3 soat amaliyot va 4 soat mustaqil taʼlim vaqti, semestrda haftaning ikki kunida kunlik 3 soat amaliyot va 2 soat mustaqil taʼlim vaqti ajratiladi) tashkil etiladi. Amaliyot kafedra professor-oʻqituvchilari va umumiy oʻrta taʼlim tashkilot rahbarligida olib boriladi.

Birinchisi – ryepublikamiz viloyatlaridagi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagogik amaliyot oʻtashi uchun 1, 2 tadan talaba yuboriladi. Oʻzlarining yashash joylariga yaqin joylarda amaliyot oʻtaydilar. Bu shakllning yutugʻi shundaki, talabaga keyinchalik bu umumiy oʻrta taʼlim maktablariga ishga borish imkonini yaratiladi, amaliyot dasturi toʻliq bajariladi. Bu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjud boʻlib, ular kursdoshlari orasidagi oʻzi oʻtgan dars samaradorligini muhokama qilish imkoniga ega boʻlmaydi, maʼnaviy-

ma'rifiy tadbirlarni bir o'zi hal qilishga to'g'ri keladi, amaliyot o'tash joylari ko'p bo'lishi sababli rahbar o'qituvchi maslahatidan to'liq foydalanish imkoni kamayadi

Ikkinchisi – to'liq guruh (18-20 talaba) bilan bitta umumiy o'rta ta'lim maktablarda amaliyot o'tiladi. Bu usulning yutug'i – talabalar o'qituvchi maslahatidan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar; o'zlari o'tgan dars sifatini guruhdoshlari tomonidan har tomonlama muhokama qilinadi. Kamchiligi esa talabalarning hammasini ham maxsus fan o'qituvchilariga biriktirish imkoni bulmaydi; 20 ta talabaga rahbarlik kilish o'qituvchiga qiyinchilik uygotadi; amaliyot dasturi to'liq bajarilmaydi.

Uchinchisi – talabalar yashash joyiga yaqin umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik amaliyot o'tashii tashkil etiladi. Ular 4-6 kishidan guruhchalarga bo'linadi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilariga 1-2 tadan talaba biriktirilib quyiladi. Oliy o'kuv yurtidan amaliyotga bitta o'qituvchi rahbarlik qiladi. Uning yutugi - amaliyot dasturi to'liq bajarildi; rahbar o'qituvchi talabalarga to'liq maslahat berish imkoniyatiga ega bo'ladi; talabalarga shu bilim yurtida ishga qolish imkoniga ega bo'ladilar. Yuqoridagilarni tahlil qilib ko'rsak 3-variantdagi pedagogik amaliyotni tashkil etish shakli ish samarador ko'rinadi. Shunday qilib, amaliyotni tashkil qilish shakllarining tahlili quyidagilarni xulosa kilishga olib keladi

1. Amaliyotni tashkil etish shakllari uni o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar va metodik ko'rsatmalar saviyasi talab darajasida o'tashiiiga asoslanishi kerak.

2. Pedagogika ta'lim yunalishida pedagogik amaliyotlar o'tashi buyicha alohida nizom ishlab chiqilishi va shu asosda amaliyot o'tkazilishi lozim.

Pedagogika fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tishning yana bir shakli «o'yinli mashg'ulotlar» o'tkashshdir.

Talabalar “Pedagogika” fanidan olgan bilimlarini “Pedagogik amaliyotlar” mustahkamlaydilar va o'zlarining ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakalarini egallaydilar. Bu pedagogik amalyotlarni tashkil etish shakllaridir. Bunda bir necha dars o'tish usullaridan foydalaniladi.

O'yinli mashg'ulotlar - sun'iy tashkil kilinadi. Bunda o'yin ishtirokchilari ma'lum rollarni bajaradilar (ishlab chikarish ustalari, o'qituvchi, bosh usta, ota-ona, tarbiyachi, rahbar va boshkalar) yoki faol ko'zatuvchi sifatida qatnashib, o'yin harakatini baholaydilar. Pedagogika fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik o'yinli mashg'ulotlar talabalarning bilish faoliyatini yanada faollashtirishga ko'maklashadi (mashg'ulotda ular faol qatnashishadi, ekspertlar mustakil



xulosalar chikarishadi, kuyilgan maksadlar amalga oshiriladi va talabalar mashg'ulotlarni ma'lum bilimlarga ega bo'lgan holda tark etadilar). Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar o'qitishning faol, samarali usuli hisoblanadi. O'yinli metodlarni ta'lim jarayoniga kiritishga, ochishga birinchi urinishlar 1932 yillarda M.M.Birshteyn tomonidan bo'lgan. Keyinchalik o'qitishning, bu metodlari pedagogika ilmidagi kam ko'llana boshlandi.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar quyidagilarga bo'linadi: ishlab chiqarishli, tashkiliy faoliyatli, muammoli, o'quv va kompleks. Pedagogika fanini o'qitishda o'quv kompleks turdagi pedagogik o'yinli mashg'ulotlarda qatnashuvchilarning na fakat kasbiy bilim va malakalari balki, shaxsning ayrim kasbiy va axlokiy xususiyatlari (tayyorgarlik, bajaruvchanlik, ijro etuvchanligi, ijodiy faollik, intiluvchanligi, asoslanganligi, jamoatchilik va boshkalar) ham shakllantiriladi.

Kompleks pedagogik o'yinli mashg'ulotlar mazmunida pedagogika, pedagogika tarixi, milliy pedagogika, psixologiya, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi kabi fanlarning o'quv materiallari o'z aksini topadi(b). Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar mutaxassisni bulgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim olishga kizikishini uygotishga va guruh,ini jiplashtirishga imkon beradi

Shuni ta'kidlash joizki, pedagogik uyinni mashg'ulotlar qatnashchilardan rollarni o'ynashda avval o'rganilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishini hamda umumiy me'yor qoidalarini bajarishini talab qiladi. Hakikiy pedagogik o'yinli mashg'ulotlar o'zida o'quv va o'yin elementlarini mujassamlashtirishi kerak.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni asosiy yunalishlari bo'yicha shartli ravishda quyidagi **uch kismga** bo'lish mumkin:

- aniq pedagogik malakalarga o'ratish;
- talabalarni o'yin jarayonida o'zaro xarakterda bo'lishga o'rgatish;
- talabalarga pedagogik psixologiya, o'qitish uslubiyoti fanlaridan ma'lum darajada bilim berish xamda ularda pedagogik tafakkurni rivojlantirish

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarning mohiyati va tamoyillari pedagogika fanini o'qitish tajribasida pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni keng kullashning ijobiy va salbiy tomonlari mavjuddir.

Ijobiy tomoni: shaxsni shakllantirishda qurol sifatida foydalanish imkoniyatiga egaligi bilan tasdiqlanadi va o'quv jarayoniini faollashtirish maksadlari bilan amalga oshiriladi.

Salbiy tomoni - kuyidagi x,ollarda vujudga keladi, ya'ni o'yinli darslarni ishlab chikishning psixologo-nedagogik ilmiyuslubiy asoslariga tayanilmaydi, fakatgina o'yinli darslarning tashki shakligina olinadi

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarning mohiyatini pedagogika va psixologiya fanlarining o'quv tarbiyaviy jarayonisiz tushunib bo'lmaydi. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar "og'ir artilleriya" bo'lib, uni o'quv jarayonini boshka usullar bilan amalga oshirish mumkin bo'lmagan hollardagina qo'llash maksadga muvofiqdir.

Kompleks pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni ishlab chiqish ularni modellantirish bilan birlashtirishni taqozo etadi. Ya'ni o'yin qatnashchilari uchun o'zaro bog'langan pedagogik holatlarning modelini tashkil etish kerak.

Hozirgi kunda pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha konsepsiya yuq;. Shuning uchun pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni psixologo-pedagogik olimlarning ko'rsatmalariga tayangan holda olib borilmokda.

Taqlidli model – haqiqiy voqealiking biron-bir qismini namoyon etadi. O'yinli model esa. taqlidli model bilan o'yin qatnashchilarining ishlash usullarini yoritadi. Taqlidli va o'yinli modellarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish uchun pedagog o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish.

Bu xolatlar bir-biriga qarama-qarshi, noaniq, yetishmagan ma'lumotlarni topishga olib keladi. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlar jarayonida talaba ma'lumotlarni tahlil qilishi, muammoni aniqlashi, uni masalali xolga keltirishi hamda uni yechish usul va vositalarini ishlab chiqishi. qaror kabul qilishi va unga boshkalarini ishontirishi, amaliy xarakatlarni amalga oshirishi kerak.

Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni ishlab chiquvchi o'qituvchilarga maslahatlar:

1. Pedagogik o'yinli mashg'ulotlarni qo'llash, uning maqsadi va o'quv jarayonidagi o'rnini aniq asoslashni talab etadi. Tarbiya fani o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim berishnishing boshqa shakl va usullarini kerakli natijani bermaganda pedagogik uyinli mashgulotlarni qo'llash mumkin va zarur. Natijada kelgusidagi kasbiy faoliyatni bajarish uchun bir butun tajribani egallash; ta'lim oluvchilarni nazariy darslardan egallagan ko'nikma va malakalarni bir tizimga keltirish; jamitdagi ilg'or tajribadan foydalanish hamda qaror qabul qilish, o'zaro munosabatlar bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; bilish kasbiy asoslanish, ijodiy, kasbiy tafakkurini shakllantirish lozim.

2. O'quv jarayoniga bitta o'yinni yoki biron bir yangilikni joriy etish, foydalaniladigan o'kitish usuli va unga kiruvchi mazmun, shakl, vositalarni, o'kituvchi hamda talabalar faoliyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'qituvchi bu masalaga tayyor bo'lishi va tizimli yondoshishi zarur. Shu bilan birga har bir yangilik boshqa o'qituvchilarning ish faoliyatiga va qiziqishlariga har xil ta'sir etishi mumkin, natijada yangilik qo'llab quvvatlanadi yoki qarshilikka uchraydi.



3. O‘yin qatnashchilari faol ishtirok etishlari kerak. O‘kuv vaziyatlari bo‘yicha talabalarda yetarlicha tushunchalar bo‘lmasa, ularning o‘yinda qatnashishlariga hojat qolmaydi. Shuning uchun bu mashg‘ulotlarga o‘kituvchi ham, talabalar ham yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi shart. Shundagina pedagogik o‘yindan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarga ungacha bo‘lgan mashg‘ulotlardan zamin tayyorlanadi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarga qadar talabalarda munozara olib borish hamda isbotlash mantiqini, inkor etish madaniyatini, boshqalarning fikrini tushunish, ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Bularni to‘garaklarda, oddiy amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

4. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni oddiy mashg‘ulotga aylantirish kerak emas. Ko‘pincha o‘yinli darslarda ikki rejali tamoyil amalga oshmaydi. O‘kuv jarayonida fakat taqlidli modelni qo‘llash uning uchun yetarli emas. Bunda albatta o‘yinli modelni ham amalga oshirish shart, shundagina bir yo‘la maqsadga erishiladi.

5. Yaxshi sharoitda tayyorlangan o‘yinda o‘qituvchi asosan o‘qitishning boshlanishiga qadar va uning oxirida, o‘yinni muhokama qilishda faol ishtirok etadi. Bu harakatlarda o‘z-o‘zini yunaltirish hamda ta‘lim olish bilan belgilanadi. O‘qituvchi o‘yin jarayoniga qanchalik kam aralashsa, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish darajasi, o‘yinining o‘qitish sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Lekin bunday yuqori natijaga erishish uchun o‘qituvchi ko‘p ishlashi xamda pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ishlab chiqish va o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilim hamda malakaga ega bo‘lishi lozim. O‘yin jarayonida o‘qituvchi uch holatni egallashi mumkin: o‘yin markazida, uning rahbari, maharotli pedagog bo‘lishi; hamma (iplar) unga kelib tutalishi kerak; o‘yin ishtirokchilaridan bironitasini vazifasini bajarishi; o‘yin o‘tkaziladigan xonani uni tark etib chikib ketishi mumkin. Talabalar o‘z faoliyatlarini o‘zlari boshqarishga xar doim, intilishlari kerak, lekin bunga erishish uchun u uslubiy va didaktik asoslangan bo‘lishi shart.

6. Talabalar iloji boricha ko‘prok; adabiyotlardan foydalanishi kerak. Shuningdek, ular o‘yin qoidalariga qatiy rioya qilishi, belgilangan vaqtda qaror qabul qilishlari va muhokamaga kech qolmasliklari zarur.

7. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ikki va to‘rt soat davomida oxirgi mashg‘ulotlarda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, pedagogik amaliyot davrida ta‘lim-tarbiyaga oid muammolarni yechish va topshiriqlarni bajarishga jalb etish, talabalarni mustaqil ravishda ish olib borishlarini muhim shakli hisoblanadi. Bunda ta‘lim tizimiga taalluqli bo‘lgan muayyan ta‘lim tarbiyaviy vaziyat bayon etiladi



xamda tugʻri javobini topish, talabalar (oʻkituvchi, tarbiyachi va ota -onalar) faoliyatini tugʻri baholash, bu faoliyat motivlarini aniqlash, shuningdek, talabalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash maqsadida ularga taʼsir koʻrsatish, taʼlim-tarbiyaviy, ishlarni tugʻri tashkil etish va uni takomillashtirib borishning shakl, usullarini, vositalari va yunalishlarini koʻrsatib berish talab kilinadi

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-289-son qarori.
2. M. M. Birshiteyn Delovyye igrы– Riga : AVOTS, 1989. – 304 s.
3. N.R.Ashurov “ Malakaviy pedagogik amaliyot ” oʻquv qoʻllanma “ARIAL”-Toshkent-2020 y.
4. Z.K.Ismoilova Pedagogikadan amaliy mashgʻulotlar «Fan» nashriyoti - Toshkent - 2001 y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bakalavriat talabalarining oliy taʼlim tizimida oʻqish jarayonida amaliyot oʻtash tartibi va kasbiy rivojlanish bosqichlari tahlili keltirilgan. Malakaviy pedagogik amaliyot oʻquv jarayonida boshqa fanlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va oʻzlarining taʼlim yoʻnalishi boʻyicha malakalarini egallaydilar kasbiy kompetensiyasining oʻzgarishi haqidagi tushunchani kengaytiradi va tadbiiq qiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье представлен анализ процедуры прохождения практики и этапов профессионального развития студентов бакалавриата в период обучения в системе высшего образования. Квалифицированная педагогическая практика в образовательном процессе закрепляет знания, полученные по другим предметам, и приобретает квалификацию по своей специальности, расширяет и применяет понимание изменения профессиональной компетентности

SUMMARY

The article presents an analysis of the internship procedure and stages of professional development of undergraduate students during their studies in the higher education system. Qualified teaching practice in the educational process consolidates knowledge acquired in other subjects and acquires qualifications in one's specialty, expands and applies understanding of changes in professional competence